



The role of international units in tourism terminology

Eldor MIYASSAROV¹

Uzbek Language and Literature University named after Alisher Navoi

ARTICLE INFO

Article history:

Received March 2025
Received in revised form
10 April 2025
Accepted 2 April 2025
Available online
25 May 2025

Keywords:

tourism,
term,
terminology,
vocabulary,
semantics,
localization,
adaptation,
integration.

ABSTRACT

A lexical-semantic analysis of tourism terminology reveals that, on one hand, English tourism terminology is more developed and serves as a basis in the lexical structure. On the other hand, in recent times, there has been a tendency toward the parallel development of lexical-semantic processes in both English and Uzbek. Thus, tourism terminology is characterized by its internationally unified components, which is primarily linked to globalization processes. This, in turn, leads to the convergence of concrete terminological systems and the formation of a common terminological vocabulary for both languages.

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss5/S-pp380-385>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Turizm terminologiyasida xalqaro birliklarning roli

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

turizm,
atama,
terminologiya,
lug'at boyligi,
semantika,
o'zbeklashtirish,
o'zbekcha shaklga keltirish,
integratsiya.

Turizm terminologiyasining leksik-semantik tahlilida shuni ta'kidlash lozimki, bir tomondan, leksik darajada ingliz tilidagi turizm terminologiyasi yanada rivojlangan holatda bo'lib, o'zbek tilida asos sifatida namoyon bo'ladi. Boshqa tomondan, so'nggi vaqtlarda ingliz va o'zbek tillarida leksik-semantik jarayonlarning parallellashuvi tendensiyasi kuzatilmoqda. Shunday qilib, turizm terminologiyasi o'z tarkibiy qismlarining xalqaro xarakteri bilan ajralib turadi, bu esa, avvalo, globallashuv jarayonlariga bog'liq bo'lib, bu konkret va terminologik tizimlarning yaqinlashuviga, ya'ni ikkala til uchun umumiy terminologik lug'atning shakllanishiga olib keladi.

¹ PhD student, Uzbek Language and Literature University named after Alisher Navoi.
E-mail: eldor.miyassarov@mail.ru

Роль международных единиц в туристической терминологии

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

туризм,
термин,
терминология,
словарный запас,
семантика,
узбекизация,
адаптация к узбекской
форме,
интеграция.

При лексико-семантическом анализе туристической терминологии следует отметить, что, с одной стороны, на лексическом уровне английская туристическая терминология находится в более развитом состоянии и выступает в качестве основы в узбекском языке. С другой стороны, в последнее время наблюдается тенденция к параллельному развитию лексико-семантических процессов в английском и узбекском языках. Таким образом, терминология туризма отличается международным характером своих составляющих, что, прежде всего, связано с процессами глобализации, которые приводят к сближению конкретных и терминологических систем, то есть к формированию общего терминологического словаря для обоих языков.

O'zbek tilida turizm terminologiyasi haqida gapirganda, bu yerda bir nechta muayyan jihatlarni ta'kidlash lozim: Turizm tadbirkorligini nisbatan kechroq bosqichda yo'lga qo'yib, uni iqtisodiyotning muhim yo'nalishiga aylantirganimiz sababli, biz avvalroq shakllangan va dunyo miqyosida yetakchi bo'lgan terminlarni o'zlashtirishga majbur bo'lamiz. Biz o'zbek san'ati, an'analari, milliy taomlari va sporti kabi dunyo miqyosida o'z o'rnini topgan yangi tushunchalar asosida o'zbek turizm terminologiyasini, shuningdek, jahon (ya'ni ingliz tili) turizm terminologiyasini boyitmoqdamiz. Biz o'zbek turizmining asosiy mavzusi bo'lmish yodgorliklarga nisbatan me'moriy va qurilishga oid tavsifiy terminologiyaga ko'proq e'tibor qaratamiz. Birinchi bosqichda ko'p madaniyatlarni o'zida mujassam etgan ingliz tilidagi turizm terminologiyasini o'zlashtirish tanlab amalga oshiriladi va bizga zarur bo'lmagan yoki milliy mentalitetimiz sharoitiga mos bo'lmagan atamalar va tushunchalarni qisqartirish yoki moslashtirish vazifasi qo'yiladi. Masalan, "kredit karta" atamasini qabul qilishga ushbu tushuncha bilan bog'liq bank amaliyoti mamlakatimizda amal qilmagani to'sqinlik qiladi va buning aksiga, biz uchun hozirgi plastik kartalarimizga muqobil ravishda "bank/debet kartasi" atamasiga ustunlik berishimizga turtki bo'ladi.

Shuningdek, terminologiya shakllanishida ilgari lug'atda mavjud bo'lmagan leksikalarga ehtiyoj paydo bo'lishi tabiiy hodisadir. Axir, "terminlar – leksikaning tez o'zgaruvchan sohasi bo'lib, yangi fan va uning tarmoqlari, yangi oqimlar va nazariyalar yangi terminlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi". Bu esa uzluksiz davom etadigan taraqqiyot jarayoni bilan izohlanadi. Masalan, so'nggi yillarda respublikamiz hududida maxsus turizm politsiyasi faoliyat yuritmoqda va unga muvofiq holda ushbu atama ham qabul qilindi (tourism police → туризм полицияси). Ingliz tilidagi turizm terminologiyasini o'rganish orqali yaqin kelajakda o'zbek turizm terminologiyasida turizm statistikasi terminologiyasini o'zlashtirish zarurati yuzaga kelishini katta ishonch bilan bashorat qilish mumkin.

Chunki turizm mamlakatimiz chegaralari doirasida qadam tashlashini ta'minlashni maqsad qilgan holda, turizm fiziologiyasi, marketingi va menejmenti sohalariga ham e'tibor qaratish muhim strategik vazifadir. Shu sababli, yaqin kelajakda "O'zbekcha izohli turizm statistikasi lug'ati"ni yaratish filolog va tilshunoslar uchun istiqbolli masala sifatida ko'rilmogda.

Ushbu kuzatuv ostidagi terminologiya ingliz tilidagi turizm terminologiyasidagi connectivity index (aloqa indeksi), customer satisfaction questionnaire (mijozlar qoniqish so'rovnomasi), compactness index (kompaktlik indeksi), comparative advantage (nisbiy ustunlik) va competitive advantage (raqobat ustunligi) kabi ko'plab tushunchalarga misol bo'la oladi.

So'nggi yillarda davlatimiz jahon hamjamiyatida jadal rivojlanayotgan mamlakat sifatida e'tirof etilmoqda. Shu sababli, xalqimizning yashash darajasi ortib, chet ellik mehmonlarni qabul qilish va boshqa mamlakatlarga sayohat qilish imkoniyati kengayib bormoqda. Bu esa disposable income (ya'ni "aholining asosiy ehtiyojlarga sarflanadigan daromadi") va discretionary income (ya'ni "aholining asosiy ehtiyojlardan ortib, qo'shimcha maqsadlarga sarflanadigan daromadi") kabi tushunchalarning o'zlashtirilishiga olib keladi. Ya'ni, taraqqiyot yangi terminologiyaning mijoziga aylanishi mumkin.

Yuqorida qayd etilganidek, nafaqat turizm, balki boshqa ixtiyoriy sohalar terminologiyasini o'zlashtirishda ham milliy madaniyatimiz va ijtimoiy-psixologik qarashlarimiz ta'sirida ma'lum bir atamaga e'tibor qaratishimiz mumkin. Masalan, "туризм саноати" (turizm sanoati) atamasiga muqobil ravishda "меҳмоннавозлик саноати" (mehmonnavozlik sanoati) atamasini o'rganish xalqimizning mehmondo'stlik madaniyati uchun juda samarali ish bo'lar edi. Shuningdek, turizm sohasidagi mahsulotlar iste'molchilarining muayyan yosh guruhi uchun maxsus chegirmani ifodalovchi "Golden Age Passport" (oltin yosh pasporti) atamasini tushunish ham katta yoshdagilarni hurmat qiladigan xalqimiz uchun aniq va mos atama bo'lar edi. Biroq, bu atamani o'rganishdan ko'ra uni "o'zbeklashtirish" maqsadga muvofiqdir. Axir, madaniyatimizda "oltin yosh", "kumush yosh", "oltin to'y", "kumush to'y" kabi tushunchalarning mavjudligi bois, ushbu atamani "grand-age passport" (katta yosh pasporti) shaklida amaliyotga kiritish mumkin.

Turizmning turli ko'rinishlari nuqtai nazaridan O'zbekistonning milliy-madaniy va ijtimoiy-geografik sharoitlarida qishloq turizmi, etnik turizm va madaniy meros/yodgorliklar turizmini rivojlantirish imkoniyatlari kengroqdir. Ushbu sohalar terminologiyasining o'zbek turizm terminologiyasida alohida milliy-etnik qatlamni tashkil etishi tabiiy holdir.

Yaqin kelajakda, mintaqamizda turizmning muqarrar ravishda muvaffaqiyat qozonishi sharoitida bu yo'nalishlarga oid tushunchalar jahon turizm terminologiyasida "o'zbekcha" degan ibora bilan alohida o'rin egallaydi. Axir bu tushunchalar dunyoning boshqa hech bir madaniyatida takrorlanmaydi va aynan o'zbeklarga xosdir.

Bu tushunchalarga shiypun, chorpoya, oftoba, chopon, ayron, chakki kabi sharqona ruhga ega ko'plab so'zlar kiradi. Palov, somsa, bozor, kurash, halol, karvon, hammom kabi leksik birliklar esa allaqachon keng iste'molga kirib ulgurgan. Ushbu jarayonda bitta tushunchani ifodalovchi atamani umumiy qabul qilish unga bog'liq boshqa atamalarning ham ommalashuviga olib keladi. Masalan, Sh.Sh. Xushmurodovanning ta'kidlashicha, "kurash" tushunchasining o'zi jahon lug'atiga halol, dakki, g'irrom, to'xta kabi atamalarni ham olib kirgan.

Madaniyatimizning yirik sohalaridan biri bo'lmish tarixiy o'zbek arxeologiyasi esa jahon turizm terminologiyasiga alohida atamalar guruhi bilan muhim hissa qo'shadi. Mamlakatimiz hududlariga tashrif buyurish, uning o'ziga xos uslublaridan zavqlanish, qadimiy yodgorlik va obidalar maydonlarini asrlar davomida tomosha qilish, bu taassurotlarni zamondoshlari bilan o'rtoqlashish, yurtimiz mehmonlari orqali keng

targ'ib qilish va jahon e'tirofiga sazovor bo'lish orqali sharq me'morchiligi terminologiyasi o'zbek turizm terminologiyasining muhim va sof milliy qismi hisoblanadi.

O'zbek me'morchiligi atamalarini tahlil qilishda shuni aytish lozimki, jadvaldagi dastlabki 5 ta atama sof o'zbekcha so'zlar bo'lsa-da, bu tushunchalar bizning yurtida Ingliz va fransuz tillaridagi nomlar bilan ifodalangan holda namoyon bo'lmoqda. Ushbu so'zlarning ingliz tiliga moslashgan variantlariga nazar tashlasak, ular asosan tovush jihatidan o'zgarishga uchraganini ko'ramiz, ya'ni ular asosan ingliz tilining fonetik xususiyatlariga moslashtirilgan bo'lib, aynan shu o'zgarish ularga begona tus bergan. Fonetik moslashuv esa o'z navbatida grafikada ham aks etadi.

O'zbek turizm terminologiyasini leksik-semantik jihatdan o'rganar ekanmiz, yana bir bor shuni ta'kidlash joizki, uning katta qismi so'z o'zlashtirish vositasida chet (ayniqsa, ingliz tilidagi) terminologiyadan shakllangan. Axir, hech bir til mutlaqo begona so'zlardan xoli bo'lgan holda mavjud bo'la olmaydi. Tarixiy taraqqiyot jarayonida boshqa etnoslarga mansub so'zlar ba'zan ixtiyoriy ravishda, ba'zan esa muayyan bosim ostida qabul qilingan bo'lib, bu holat turli xalqlar va millatlarning iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalari natijasida yuzaga kelgan.

Xususan, ushbu tadqiqot davomida biz til o'rganish jarayoni bilan bog'liq lingvistik hodisalarga ko'proq e'tibor qaratamiz.

Ba'zi hollarda o'zbek turizm terminologiyasi chet tilidagi atamalarni bevosita tarjima qilish orqali berilsa, ko'p hollarda "o'zbeklashtirish" jarayoniga murojaat qilish zaruriyati yuzaga keladi, bu esa yanada chuqurroq kuzatishni talab qiladi.

Tarkibiy komponentlar ustunlik qiladigan va ma'lum bir ma'no (asos) aniq ko'rinib turadigan atamalarni o'zlashtirish bevosita tarjima orqali amalga oshiriladi.

Masalan:

Ingliz va fransuz tillaridagi	O'zbekcha	Fransuzcha
agency agreement	agentlik shartnomasi	contrat d'agence
agency coupon	agentlik kuponi	coupon d'agence
air carrier	havo tashuvchisi	transporteur aérien
airport terminal	aeroport terminali	terminal d'aéroport
alternate airport	muqobil aeroport	aéroport de dégagement
aquatic sports	suv sporti	sports aquatiques
arrival card	kelish varaqasi	fiche d'arrivée
baggage tag	yuk/bagaj yorlig'i	étiquette de bagage
connecting flight	ulovchi parvoz	vol de correspondance
cultural heritage	madaniy meros	patrimoine culturel
departure card	ketish/jo'nash varaqasi	fiche de départ
direct selling	bevosita sotuv/savdo	vente directe
dome car	gumbazli avtomobil	voiture panoramique
duplicate reservation	duplikat buyurtma	double réservation
e-ticket	elektron chipta	billet électronique
excess baggage	ortiqcha yuk	excédent de bagages
farm tourism	ferma turizmi	agrotourisme

Ingliz va fransuz tillaridagi	O'zbekcha	Fransuzcha
field sports	dala sporti	sports de plein air
Hajj Pilgrimage	Haj ziyorati	pèlerinage à la Mecque (Hadj)
hotel tariff	mehmonxona tarifi	tarif hôtelier
industrial tourism	sanoat turizmi	tourisme industriel
mass tourism	ommaviy turizm	tourisme de masse
one-way ticket	bir tomonlama chipta	billet simple
seasonality	mavsumiylik	saisonnalité
transit traveler	tranzit sayyoh/yo'lovchi	voyageur en transit

"Baggage room" va **"auto rental"** kabi atamalarni o'zbek tiliga o'g'irish jarayonida ular ikki komponentli bo'lsa-da, yagona komponentli so'z shakliga (юкxона, автоижара) aylanganini kuzatish mumkin.

Cafeteria, Business Class, duty-free, ecotourism, agritourism, ethnic tourism, business center, festival, catering, force majeure kabi atamalar esa ozgina orfografik o'zgarishlar bilan "o'zbeklashtirilgan" holda qabul qilingan.

Ushbu so'zlarni integratsiya qilish jarayonida birodar rus tilining ta'siri yaqqol seziladi. Natijada, yangi ko'rinish kasb etgan va ruscha xususiyatlarga ega bo'lgan leksik birliklarning affiksatsiyasi shakllangan.

"Seaplane" (денгиз самолёти) va **"flying boat"** (учар қайиқ) kabi atamalar transport rivojlanishidagi yangiliklarni ifodalaydi va turli transport turlarining gibrid kombinatsiyasi sifatida yuzaga kelgan.

Ingliz va fransuz tillaridagi turizm terminologiyasida bundan-da ko'proq gibrid birikmalar mavjud. Masalan: **"fly cruise"**, **"fly drive"**, **"fly rail"** kabi shakllar.

Xulosa: Ingliz va fransuz tillaridagi turizm terminologiyasini integratsiya qilish jarayonida ba'zan bir tushuncha ikki yoki undan ortiq sinonimlarga ega bo'lsa, shundan birini ekvivalent sifatida qabul qilishga majbur bo'lamiz. Tanlangan variant esa: milliy tilimiz imkoniyatlari darajasiga mos kelishi; qo'shni yoki birodar tillar leksikonida mavjud bo'lishi; oddiygina tanishroq ko'rinishi bilan ajralib turadi.

Masalan: **"sleeping seat"** – **"sleeperette"** – **"dormette"** sinonimik qatoridan **"sleeperette"** yoki **"dormette"** shakllarining **"ухлаш ўриндиғи"** tarzida qabul qilinishi qulayroqdir, chunki u dam olish joyi sifatida tanilgan.

"Dacha" – **"summer house"** – **"second house"** qatorida **"дача"** atamasining tanlanishi esa qo'shni rus madaniyatida mavjudligi va xalq tilida keng qo'llanishi bilan izohlanadi. **"Day-visitor"**, **"same-day visitor"**, **"excursionist"** kabi atamalarga ham xuddi shunday yondashish mumkin. **"Термал булоқ"** (thermal springs) va **"иссиқ булоқ"** (hot springs) juftligida esa ikkinchi shaklning xalq orasida keng qo'llanishi uni turizm terminologiyasiga kiritishga sabab bo'ladi. **"Room service"** (хона хизмати) va **"floor service"** (қават хизмати) kabi atamalar esa keng qamrovli ma'noga ega. **"Acclimatization"** (акклиматизация), **"assimilation"** (ассимиляция), **"acculturation"** (аккультурация), **"adaptation"** (адаптация) kabi atamalardan esa **"adaptation"** eng tanish tushuncha hisoblanadi. Chunki **"assimilation"** so'zining lingvistikada boshqa ma'noda ishlatilishi chalkashlikka sabab bo'lishi mumkin. Qisqartmalar esa yangi til leksikoniga oddiy leksik birliklar kabi o'zgarmagan yoki tarjima qilingan holda kiradi. Masalan:

“АТМ” (automated teller machine) – “**банкомат**” shaklida bevosita qabul qilinishi afzal, chunki u xalq orasida keng tarqalgan. “**CSS**” (customer satisfaction survey) esa “**харидор мамнунияти сўровномаси**” tarzida tarjima qilinishi maqsadga muvofiq, chunki u amalda keng qo'llaniladi.

Ingliz va fransuz tillaridagi turizm terminologiyasi ko'plab madaniyatlar ta'sirida shakllangan. Ingliz va fransuz tillaridagi turizm terminologiyasida sinonimlar, antonimlar, ko'pma'nolilik va obrazli ma'no yuqori darajada kuzatiladi. O'zbek turizm terminologiyasining katta qismi xorijdan, xususan, ingliz tili leksikasidan o'zlashtirilgan. O'zbek madaniyati esa, ayniqsa, sharqona me'morchilik bilan bog'liq ko'plab sohalarga oid atamalar bilan jahon leksikonini boyitgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Crystal, D. *English as a Global Language*. Cambridge University Press, 2003.
2. Dann, G. M., *The Language of Tourism: A Sociolinguistic Perspective*. CABI Publishing, 1996.
3. Hall, C. M., & Page, S. J. *The Geography of Tourism and Recreation: Environment, Place and Space*. Routledge, 2006.
4. Pritchard, A., Morgan, N.J., & Sedgley, D. *Tourism and Cultural Change*. Channel View Publications, 2001.
5. Kabulova M. Turizm leksikasidagi semantik xususiyatlari. – Toshkent: TDShI, 2021.
6. Quramov Sh. O'zbek tilidagi turizm terminologiyasining shakllanishi. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2019.
7. Xushmurodova Sh.Sh. Turizm terminologiyasida o'zbek tilining o'rni. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2020.